


## Korxonalar va tashkilotlarning demografiyasi

### 1. Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar holati.

Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sharoitida olib borilgan islohotlar natijasida, 2017 yil 1 avgust holatiga, viloyat bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 22016 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan 4,7 foizga oshganligini ko'rsatdi. Ushbu korxonalarining asosiy qismi, 6918 tasi Samarqand shahriga, 1946 tasi Urgut, 1764 tasi Pastdarg'om, 1452 tasi Samarqand, 1187 tasi Payariq, 1115 tasi Ishtixon, 1012 tasi Kattaqo'rg'on, 882 tasi Bulung'ur, 864 tasi Narpay, 843 tasi Tayloq, 834 tasi Oqdaryo, 734 tasi Jomboy, 635 tasi Nurobod, 574 tasi Paxtachi, 534 tasi Qo'shrabot tumanlariga va 722 tasi Kattaqo'rg'on shahriga to'g'ri keladi.

### Hududlar kesimida ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




### 2. Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar faolligi.

Shu bilan birga, 2017 yil 1 avgust holatiga kelib, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 20945 tani tashkil etildi.


Mazkur ko'rsatkich viloyat bo'yicha asosiy qismi, 6601 tasi Samarqand shahriga, 1912 tasi Urgut, 1637 tasi Pastdarg'om, 1397 tasi Samarqand, 1100 tasi Payariq, 1081 tasi Ishtixon, 943 tasi Kattaqo'rg'on, 828 tasi Bulung'ur, 827 tasi Tayloq, 825 tasi Narpay, 791 tasi Oqdaryo, 667 tasi Jomboy, 588 tasi Nurobod, 539 tasi Paxtachi, 510 tasi Qo'shrabot tumanlariga va 699 tasi Kattaqo'rg'on shahriga to'g'ri keladi.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



Iqtisodiyot tarmoqlari kesimida 2017 yil 1 avgust holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan 20945 ta yuridik shaxsning (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) asosiy qismi 4768 tasi savdo, 3660 tasi sanoat, 1639 tasi qurilish, 1373 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1188 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 675 tasi tashish va saqlash, 434 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 386 tasi axborot va aloqa hamda 6822 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


**Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) birlikda*



### **3. Xorijiy investitsiyalar va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalarni rivojlantirish**

2017 yil 1 avgust holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 263 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 25 taga yoki 10,5 % ga o'sgan. Shuningdek, Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 200 tasi qo'shma korxonalar, 63 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



Ro'yxatga olingan xorijiy investitsiya va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi 182 tasi sanoatda, 37 tasi savdo, 12 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4 tasi tashish va saqlashda, 1 tasi qurilishda va 15 boshqa turdagi sohalariga to'g'ri keladi.

### 2017 yil 1 avgust holatiga Xorijiy investitsiyalar va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha soni

